O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor
_____ M.R. Qodirxonov
“08” 2026-yil

19.00.05 – “IJTIMOIY PSIXOLOGIYA. ETNOPSIXOLOGIYA” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorlar uchun kirish imtihoni

DASTURI

Namangan – 2026

Kirish

Ushbu dastur: Ijtimoiy psixologiya, sotsial psixologiya, etnopsixologiya fanlarining na’munaviy dasturlari asosida tuzildi.

Dasturning maqsadi – izlanuvchilarni shaxs va jamiyat munosabatlariga oid psixologik qonuniyatlarni, jamiyatda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning shaxs ijtimoiy xulqiga ta’sir ko‘rsatishini tushuntiruvchi mexanizmlar to‘g‘risidagi bilim ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Dasturning vazifasi – tadqiqotchilarni dastur doirasida, katta va kichik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi; shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni; etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda milliy urf-odat, an’analar va ularning ijtimoiy-psixologik funksiyalari haqidagi tushuncha va ma’lumotlarga oid bilimlar bilan qurollantirish hamda ushbu bilimlarni keng doirada qullay olishga yo‘naltirishdan iborat.

Dastur bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar:

“tadqiqotchi katta va kichik guruhlar ijtimoiy psixologiyasi; shaxsning jamiyatda ijtimoiylashuvi jarayoni; etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda milliy urf-odat, an’analar va ularning ijtimoiy- psixologik funksiyalari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi:

- shaxs va jamiyat o‘zaro munosabatining turli qirralarini; zamonaviy ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiyaning tadqiqot metodlarini; milliy tuyg‘ular, etnik attityud va steriotipni, ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatishning yo‘nalishlarini, ommaviy madaniyatning millatga ko‘rsatadigan ta’sirini bilishi va ulardan foydalana olishi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; - nazariy-metodologik jihatdan o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotga joriy etish; psixologiyasi qonuniyatlarini bilgan tarzda ijtimoiy-psixologik treninglar o‘tkaza olish; tadqiqotlarda olingan natijalarni ilmiy asoslab tahlil qila olish; sportchilarda liderga xos sifatlarni tarbiyalash malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Dasturni amalga oshirish o‘quv rejasida rejalashtirilgan gumanitar va pedagogik va psixologik (falsafa, etika, estetika, mantiq,), matematik va tabiiy (yosh fiziologiyasi va gigiena), umum kasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika fanlarini o‘qitish metodikasi, pedagogik mahorat) fanlari bilan o‘zaro aloqada olib boriladi.

Talabgorlar uchun umumiy savollar

1. Ijtimoiy-psixologik qarashlarning rivojlanish tarixi
2. Ijtimoiy psixologiyaning Rossiyada va sobiq ittifoq davlatlarida rivojlanishi
3. Ijtimoiy psixologiyaning metodlari
4. Ijtimoiy psixologiya o‘rganadigan asosiy masalalar
5. Muloqotning funksiyalari, bosqichlari va turlari.
6. Nizolar va ularning kelib chiqishi.
7. Interaktiv muloqotning ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy mohiyati.
8. Katta guruhlar psixologiyasi
9. Guruhlar klassifikatsiyasi
10. Kichik guruhlar psixologiyasi
11. Referent guruh tushunchasi
12. Ijtimoiy psixologiya va shaxs
13. Ekstrovert va introvert tiplar
14. Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxsning ijtimoiy ustanovkalari
15. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik
16. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy-tadbiqiy sohalari. Ijtimoiy psixologik xizmat
17. Etnopsixologiya fanining predmeti va vazifalari
18. Etnopsixologik tadqiqotlarning G‘arb va Sharqda o‘rganilishi
19. Mutafakkir Forobiyning etnopsixologiya faniga qo‘shgan hissasi
20. Etnopsixologiyaning metodlari
21. G.U. Ksoeva taklif etgan to‘rt guruh metodlar
22. Etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar
23. Amaliy ijtimoiy psixologiyaning tatbiqiy sohalari.
24. Dastlabki ijtimoiy-psixologik tasavvurlar va ularning namoyon bo‘lishi
25. Ijtimoiy psixologiya va xavfsizlik muammolari.
26. Shaxsni tarbiyalovchi makro va mikro muhit tushunchasi
27. Ijtimoiy psixologiyaning O‘zbekistondagi rivojlanishi
28. Kichik guruhlardagi dinamik jarayonlar.
29. Kichik guruhlarning klassifikasiyasi.
30. Maktab va ta’lim muassasalariga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish
31. Nizolar psixologiyasi va uning kelib chiqishi
32. Shaxsning ijtimoiylashuvi
33. Millatga xos xususiyatlar
34. Psixologik xususiyatlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik muhitning roli
35. Beruniyning etnopsixologik qarashlari
36. O‘zbek xalqiga xos ayrim psixologik xususiyatlar va ularning shakllanishi sabablari
37. Milliy xarakterning tashkil etuvchi komponentlar
38. Milliy tuyg‘ularga xos xususiyatlar
39. Ijtimoiy muhitning psixologik iqlimi haqida
40. Psixologiya fanining turli tarmoqlari metodlaridan din psixologiyasida foydalanish imkoniyatlari.
41. “Rolli nazariya” zamonaviy din psixologiyasida rollarni qabul qilish nazariyasi sifatida (Ya.Sunden, N.Xolm, U.Vikstrem).

42. Sotsial psixologiya fanining predmeti va vazifalari.
43. Sotsial psixologiya fanining tarixi
44. Dastlabki ijtimoiy bilimlar.
45. Omma va olomon psixologiyasi.
46. Tard ishlarida uch manbani va ishlarida uch tugallanishni “Sotsial xatti-xarakat instinkti” nazariyasi (Mak Daugall).
47. Sotsial psixologiya mustaqil fan sifatida
48. Sotsial psixologiyaning zamonaviy nazariyalari
49. Sotsial psixologiyaning asosiy metodologik muammolari
50. Sotsial psixologiyaning asosiy metodolari
51. Sotsial psixologik tadqiqotning asosiy metodlari.
52. Kuzatish metodi, suxbat metodi.
53. Xujjatlarni taxlil qilish metodi.
54. Proektiv metodlar.
55. Sotsial psixologiyada “test" qullashning sharoitlari.
56. Sotsial psixologiyada eksperimentlarning asosiy tillari.
57. Sotsiometriya metodi.
58. Tadqiq etishla qiyosiy-madaniy yondashuv
59. Qiyosiy-madaniy psixologiya fanining predmeti va obekti.
60. Qiyosiy- madaniy psixologiya fanining maqsad va vazifalari.
61. Qiyosiy-madaniy psixologiyaning psixologik antropologiyadan asosiy farqi.
62. E. Aronsonning qarashlari.
63. Etik yondashuv.G. Triandis, P. Monsonlarning kontseptsiyalari.
64. Shaxs sotsial psixologiyasi mustaqil tadqiqot sohasi sifatida
65. Sotsial psixologiyada shaxs muammosi.
66. “Men” kontseptsnyasi, “Men” obrazi, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy ong.
67. Individual ong rivojlanishida sotsial munosabatlarni xal qiluvchi roli.
68. “Sotsial rol" tushunchasi.
69. Shaxslararo idrokning emotsional tomoni.
70. Shaxs ijtimoiylashuvi
71. Shaxs shakllanishida ijtamoiy muhiting roli.
72. Shaxsning sotsializatsiyasi tushunchasi.
73. Ijtimoiylashuv maskanlari.
74. Oilaviy ijtamoiylashuv va uning muhim jihatlari.
75. Sotsial tasirlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi.
76. Sotsial norma va uning shaxsga singdirilishi.
77. Sotsial sanktsiya tushunchasi.
78. Ijtimoiylashuv jarayonida nomadaniy oziga xoslikning namoyon bo’lishi
79. M. Mid. D. Matsumoto qarashlari.
80. Madaniy transmissiya va transmissiyaning turlari.
81. Bolaga tasir qiluvchi ijtimoiylashuv omillari.
82. U. Bronfenbrenner, E.Erikson qarashlari.
83. Sotsial xarakter va uning namoyon bolishi xususiyatlari
84. Sotsial xarakter tushunchasi.
85. R.Merton boyicha shaxs tiplari.
86. E.Fromm ishlarida sotsial xarakter muammosi.
87. Sotsial psixologiyada muloqot psixologiyasi

88. Muloqotning funktsiyalari, bosqichlari va turlari.
89. Muloqotning ijtimoiy psixologik axamiyati.
90. Muloqotda fazoviy joylashuvning o‟ziga xosligi.
91. Muloqotning kommunikativ tomoni axborot almashish
92. Muloqotning interaktiv tomoni: muloqotning xarakatlar bilan almashishi
93. Jamoalar va guruhlar.
94. Jamoalarning psixologik belgisi - “biz”- xissiyotining yuzaga kelishi.
95. Guruhlar va tashkilot.
96. “Guruhiy ong fenomeni.
97. Chet el sotsial psixologiyasida guruhlararo munosabatlarning urganilishi.
98. Guruhlararouzarota‟sirniguruhdagiichkijarayonlargata‟siri.
99. Katta guruhlar psixologiyasiga hos hususiyatlari
100. Katta sotsial guruhlar darajasida guruhlararo jarayon spetsifikasi.
101. Guruhlararo munosabatlar psixologiyasining amaliy muammolari.
102. Katta guruhlar psixologiyasi muammosi.
103. Katta guruhlarni ennflarga bulish zaruriyati.
104. Noformal birlashmalar va stixiyali tashkil etilmagan guruhlar psixologiyasi.
105. Etnik guruhlarning psixologik hususiyatlari.
106. Etnik guruhlarni tadqiq etishning metodologik printsiplari.
107. Etnik kelib chiqish, etnik guruh mavjudligining sotsial tarixiy sharoitlarga bog’liqligi.
108. Kichik guruhlar muammosi
109. XX asr sotsial psixologiyasida kichik guruhlarga bo’lgan qiziqishlarning sabablari.
110. Kichik guruh tushunchasi.
111. Guruh va tashkilot.
112. Tashkilot psixologiyasi.
113. Guruhlarning rivojlanish muammosi.
114. Kichik guruhlar dinamikasining asosiy jarayonlari.
115. Kichik guruhdagi jarayonlarning umumiy xarakteristikasi.
116. Kichik guruhlarning shakllanish mexanizm».
117. Kichik guruhlarda liderlik va rahbarlik.
118. Sotsial psixologiyada lider tushunchasi.
119. Kichik guruhlarda liderlik va boshqaruv muammosi
120. Liderlikni o‟rganishning nazariy va amaliy axamiyati.
121. Liderlik nazariyalari.
122. Rahbar va lider muammosi.
123. Guruhiy qaror qabul qilish.
124. Guruhiy fikr shakllanishi va guruhda qaror qabul qilishga ta’sir kursatuvchi asosiy omillar.
125. Guruhiy kelishmovchiliklar va qaror qabul qilish mexanizmi.
126. Kichik guruhning faoliyat samarasi.
127. Guruh faoliyati samarasiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar.
128. Boshqaruvning ijtimoiy-psixologik muammolari
129. Shaxsning sotsial ustanovkalari
130. Sotsial ustanovka tushunchasi.

131. Sotsial ustanovkalarning o‟rganishda Uznadze maktabi tadqiqotlarining ahamiyati.
132. Etnopsixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
133. Etnopsixologiya fanining tadqiqot metodlari
134. Xalqlar psixologiyasi tushunchasi
135. Etnopsixologiyani rivojlanish istiqbollari yuzasidan zaruriy bilimlarn hosil qilish.
136. Etnopsixologik tadqiqotlarning asosiy yonalishlari.
137. Etnos, xalq, millat, irq tushunchalarining ozaro munosabatlari
138. Qadimgi va o‘rta asrlarda etnopsixologik tasavvurlar.
139. Etnopsixologik tasavvurlarni keyingi davrlarda taraqqiy etishi.
140. L.N.Gumilevning xalqlar kontseptsiyasining vujudga kelishi.
141. L.N.Gumilevning xalqlar nazariyasi tushunchasi.
142. Xalq tushunchasi
143. Etnik identiklikni shakllanishi
144. Etnos tushunchasi.
145. Etnos belgilari.
146. Etnosni tushunishning promordializm va konstruktivizm kontseptsiyalari.
147. Etnik simvollar
148. Etnik madaniyat
149. Shaxsiy Men-siymosining tuzilishi.
150. Etnik o‟zini ozi anglashning tuzilishi va funktsiyalari.

UMUMIY PSIXOLOGIYA

Fanni o’qitishdan maqsad – talabalarda umumiy psixologik bilimlarni shakllantirish, voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarning, shaxsning o’zida kechadigan jarayonlar va psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta‘sir ko’rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o’rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - Umumiy psixologiya fanini o‘qitish vazifalari quyidagilarni hal etishga qaratilgan: -inson ruhiyatini psixologik tahlil etish;

-umumiy psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o’rnini talabalarga tushuntirish;

-voqea va hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish;

-inson psixologiyasini umumiy ilmiy asoslarini o’rgatishni;

-jamiyat va shaxs orasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlari asosida rivojlantirishni;

-umumiy psixologiya fani bo’limlari bo’yicha (psixikaning evolyutsion taraqqiyoti, shaxs psixologiyasi, ichki regulyatsiya, sezgi va idrok, diqqat va xotira, tafakkur va nutq) psixologik bilimlarni tahlil etish, ularning qonuniyatlarini mashg’ulot jarayonida talqil qilish.

Fanni o’zlashtirish natijasida tadqiqotchi:

psixikaning obyektiv va subyektiv mezonlarini, psixikani rivojlanish bosqichlarini, inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy tabiatini; dunyonivujudga kelish nazariyalari, soda psixika; asab tizimini paydo bo’lishi; instinktlar haqida tushuncha; hayvonlarning intellektual xatti-harakatlari; hayvonlar va insonlar o’rtasidagi tafovutlar; til nazariyalarining o’ziga xosligini bilishi va ulardan foydalana olishi;

zoopsixologiya qonuniyatlarini tatbiq etish; psixika me‘zonlari; hayvonlar psixikasini ontogenezda rivojlanishi; qiyosiy psixologiya; olimlarning instinkt haqidagi qarashlari; evolyusiya nazariyalari; nutqni paydo bo’lishi; miya va bilish jarayonlarining aloqadorligi;ustanovkalarning paydo bo’lishi haqidagi bilimlarni amaliyotda qo’llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYA

Fanni o‘qitishdan maqsad– inson psixik taraqqiyotiga oid qonuniyatlar va omillar, rivojlanishning ijtimoiy vaziyati va yangi tuzilmalari mohiyatini ochib berish. Umr davrlari shakllari va tiplari, muammoga nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, talabalarni insonning ona qornida paydo bo’lgan davridan boshlab, to qarilik davrigacha rivojlanishining o’ziga xususiyatlari bilan tanishtirish, shuningdek, yosh bosqichlarida rivojlanish muammolarini amaliy hal etish bo’yicha ko’nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - rivojlanish psixologiyasi fanining nazariy asoslari va inson taraqqiyoti qonuniyatlarini tadqiq etish uchun amaliy materiallar bilan qurollantirish; talabalarni inson rivojlanish davrlarining o’ziga xos fiziologik, psixologik, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan tanishtirish; inson umrining har bir bosqichida rivojlanishning ijtimoiy vaziyati, faoliyat turlari

va shunga mos ravishda rivojlanish xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlar berish va har bir yosh bosqichida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Fanni o'zlashtirish natijasida tadqiqotchi:

- rivojlanish psixologiyasining asosiy bosqichlari to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

ontogenezda psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari va ontogenezda psixik rivojlanishning asosiy davrlari haqida bilimga ega bo'lishlari; Ta'lim va rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik muammosini hal qilishning asosiy nazariy yondashuvlari va ularni ta'lim va tarbiya amaliyotida qo'llashni bilishlari; ontogenezning turli bosqichlarida rivojlanishning xavf omillari va hayotiyligining ahamiyati; ontogenezning turli bosqichlarida insonning yosh-psixologik xususiyatlari haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

xalq ta'limi, ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, psixologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda, psixologik maslahat berishda, shuningdek, inson aqliy rivojlanishining borishi va dinamikasini nazorat qilishning maxsus vazifalarini hal qilishda insonning yosh-psixologik xususiyatlarini yetarlicha ko'rsatkichlarni aniqlash; xavf omillari va hayotiyligini aniqlash asosida shaxs rivojlanishining oldini olish, tuzatish va optimallashtirish bo'yicha ishlarni olib borish, bolalar, o'spirinlarni yetuklikda rivojlantirish va o'qitish bo'yicha psixologik maslahatlar berish; yoshga bog'liq rivojlanish inqirozlarini psixologik qo'llab-quvvatlash bilan, qarish va qarilik jarayonlarini bilish; ta'lim jarayonida yoshga oid xususiyatlarni hisobga olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

Fanni o'qitishdan maqsad–talabalarni oliy ta'lim tizimiga tayyorlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'limni uzviyligini ta'minlash, psixologiya faniga oid umumiy qonunuyatlar, qoidalar, atama va tushunchalarni takrorlash, to'ldirish va qaytar aloqani ta'minlashga o'rgatish.

Fanning vazifasi–talabani oliy ta'lim tizimiga moslashtirish, mustaqil ta'limga o'rgatish va yo'naltirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'limni uzviyligini ta'minlash, psixologiya fanidagi boshlang'ich tushunchalarni umumlashtirishdan iborat.

Fanni o'zlashtirish natijasida tadqiqotchi:

- psixologik xizmat predmeti, psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari, maktabdagi psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari, bola taraqqiyoti uchun qulay psixologik iqlim yaratish, psixologning diagnostik korreksion ishi ***haqida tasavvurlarga ega bo'lishi;***
- talaba amaliy psixolog mutaxassis va shaxs sifatida, maktabgacha tarbiya muassasasidagi psixolog ishi, birinchi sinfga kelayotgan bolalar bilan, umumta'lim maktabida, xususiy maktabda olib boriladigan ishlar, mehribonlik uylaridagi, ta'lim departamentidagi psixolog ishi, psixologning o'qituvchilar bilan olib boradigan ishlari bo'yicha ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***.

talaba maktabgacha tarbiya muassasasida olib boriladigan rivojlantiruvchi mashqlar, bolalarni o'qishga tayyorlash masshqlari, bolalarning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash dasturi, o'smirlar va ilk o'spirin uchun o'quv faoliyatining individual uslubi, maktab psixologi barcha ish turlarini bilishi, bola uchun qulay iqlim yaratish, maktab psixologining kasbga tayyorgarligi, psixologning maktab jamoasi bilan hamkorligi, o'quvchilarga individual

yondashuv xizmatning asosiy tamoyillariga doir ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak***.

SHAXS PSIXOLOGIYASI

“Shaxs psixologiyasi” fanini o‘rganishdan maqsad –-bo‘lajak pedagog, psixologlarga shaxs psixologiyasi doirasidagi ilmiy nazariy qarashlar, metodologik yondashuvlar, xususida hamda kouch shaxsi, kouching borasidagi zamonaviy konsepsiyalar, kouch va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni oqilona tashkil qilish doirasida bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanini o‘rganish vazifasi bo‘lib, magistrlarga shaxs psixologiyasining dolzarb muammolari, shaxsni o‘rganishning tarixiy-metodologik asoslari, zamonaviy va nazariy-klassik yondashuvlar, kouching haqida tushuncha, kouchingni zamonaviy modeli, shakli, ko‘rinishlari, kouch shaxsiga qo‘yiladigan ahloqiy talablar va shaxsiy sifatlari, kouching jarayonini tashkil qilishning qoidalari, talablari haqida amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

“Shaxs psixologiyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrlar: shaxs psixologiyasining dolzarb muammolari, shaxs borasidagi psixoanalitik yondashuv, A.Adlerning individual psixologiyasi, K.Yungning analitik psixologiyasi, shaxs borasida bixevioral, ijtimoiy-kognitiv nazariyalari, kouching texnologiyalarining mazmun-mohiyati, kouching modeli, ko‘rinishlari, turlari, tanishuv va mijoz maqsadlarini topish, hamkorlikdagi munozara usuli hususida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;

-shaxs shakllanishi va rivojlanishining biogenetik, sotsiogenetik yo‘nalishlari, A.Asmolov bo‘yicha shaxs rivojlanishining tuzilishi determinatsiyasi, shaxs borasidagi nazariy yondashuvlar va psixologik maktablar, kouch shaxsiga qo‘yiladigan talablar, axloqiy tamoyillar, kouching jarayonining bosqichlari, mijoz zahiralarini o‘rganish borasida ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

shaxs borasidagi psixologik maktablar-nazariyalarini tahlil qilish, psixoanalitik, ijtimoiy-kognitiv ta’limotida shaxs muammosini ilmiy tahlili, mijoz haqligini o‘rganish va kouch shaxsida faol tinglash xatti-harakatlarining yangi modellarini shakllantirish, kouching psixotexnikasi va metodikasi, kouching jarayonini tashkil qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

1. Umumiy psixologiya

1. Psixologiya atamasini turli nomlari.
2. Ilmiy va ilmiygacha bo'lgan Psixologiya.
3. Falsafa, tabiiy fanlar va psixologiya.
4. Psixologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi.
5. Ilmiy va hayotiy psixologiya va ularning o'zaro aloqasi.
6. Ilmiy va hayotiy psixologiyani o'zaro hamkorligi.
7. Fanlar tizimida psixologiyaning o'rni.
8. Psixologiya tabiiy va gumanitar fan sohasi sifatida.
9. Matematik bilimlarni psixologiyadagi o'rni.
10. Inson psixikasini ontogenezda rivojlanishi
11. Psixik jarayonlar va miyaning o'zaro aloqadorligi.
12. Zoopsixologiya va qiyosiy psixologiyaga kirish.
13. Hayvonlar psixik faoliyatining umumiy tavsifi
14. Hayvonlarning psixik faoliyatini ontogenezda rivojlanishi.
15. Hayvonot olamida psixik funksiyalar evolyutsiyasi.
16. Motivatsiya haqida umumiy tushuncha
17. Motivatsiyaning tuzilishi va funksiyalari asosiy turlari va rivojlanish bosqichlari
18. Temperament haqida hozirgi zamon nazariyalari
19. Jinsiy dimorfizm va individning psixologik tavsifi.
20. Axloqiy xulq-atvor regulyatsiyasining takomillashuvi.
21. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari

2. RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA DIFFERENSIAL PSIXOLOGIYA

1. Rivojlanish psixologiyasi predmeti va vazifalari.
2. Bolalar psixologiyasining tarixiy shakllanishi (Ch.Darvin, J.-J.Russo, V.Preyer, S.Xoll).
3. Umr rivojlanishi dinamikasini o_rganish metodlari.
4. Psixodiagnostik metodlar (anketa, so_rovnoma, test).
5. Ontogenezda psixik rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlarni tushunishga omilli yondashuvlar
6. Inson psixik rivojlanishini tushuntirishga ijtimoiy-madaniy yondashuv (A.Vallon).
7. Perinatal davr: homilaning sensor, motor va reflektor faolligi.
8. Chaqaloqlik davri inqirozi.
9. Maktabgacha yoshdagi davrda rivojlanishning ijtimoiy vaziyati xususiyatlari.
10. Xarakter aksentuatsiyasi.
11. Yetuklik davrining davrlashtirilishi.
12. Gerontopsixologiyaning fan sifatida shakllanishi.
13. Ijtimoiy-sinfiy tafovutlar.
14. Maxsus psixologiya fani predmeti va vazifalari.
15. Surdopsixologiyaning fan sifatida rivojlanishi va tarkib topishi uchun zaruriy omillar.

16. Ko‗rish organining inson hayotidagi ahamiyati.
17. Oligofren psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi va tarkib topishi uchun zaruriy omillar.
18. Oligofreniyani erta tashxis qilish.
19. Psixik rivojlanishi sust bolalar psixologiyasi.
20. Nutqning psixik rivojlanishdagi ahamiyati.

3.MUTAXASISLIKKA KIRISH

1. Psixolog faoliyatini ko'rinishi va sohalari.
2. Kasbiy muhim sifatlar.
3. Psixologning faoliyat ko‗rinishlari.
4. Ta'lim tizimida psixologik faoliyat.
5. Tibbiyot sohasida psixologik yordam.
6. Ijtimoiy munosabatlar sohasida psixolog faoliyati xususiyatlari.
7. Mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiya.
8. Iqtisod va biznes sohasida psixologiya.
9. Kadrlarni tanlash va boshqarish psixologiyasi.
10. Huquqiy sohasida psixologik faoliyat**.**
11. Sport sohasida psixologik ish.
12. Konsultativ psixologiya.
13. Taraqqiyot psixologiyasi. shaxs psixologiyasi.
14. Psixokorrreksiya va psixoterapiya.
15. Psixolog kasbiy faoliyatida psixologiya metodlarining tutgan o'rni.
16. Psixologiya metodlari.
17. Kuzatish metodi.
18. Eksperiment metodi.
19. Suhbat-intervyu.
20. Psixodiagnostik metodlar.

4. SHAXS PSIXOLOGIYASI

1. Shaxs psixologiyasi fanining asosiy muammolari
2. Shaxs borasidagi tadqiqotlarning qisqacha tarixi.
3. Shaxs psixologik bilish predmeti sifatida.
4. Shaxs borasidagi eksperimental tadqiqotlar metodologiyasi.
5. Individual va analitik psixologiya shaxs muammosi
6. A.Adlerning nazariyasida ijtimoiy mayl konsepsiyasi.
7. Hukmronlikka ishtiyoq, ustunlik, mukammallik.
8. Hayotiy reja va yolg'on maqsadlar tushunchasi.
9. K.Yungning analitik psixologiyasini umumiy tavsifnomasi.
10. K.Yung bo'yicha psixika tuzilishi.
11. Jamoaviy ongsizlik individ psixik hayotining asosi sifatida. K.Yung bo'yicha shaxs rivojlanishi.
12. Jon Uotson shaxs nazariyasida bixevioral yo'nalishning asoschisi sifatida.
13. Klassik bixeviorizning asosiy talablari.
14. Skinner nazariyasining asosiy talablari.
15. Respondent va operant xulq-atvor tushunchasi.
16. A.Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasining asosiy tamoyillari.

17. O‘rganish modelirovka vositasida.
18. O‘rganishni kuzatish orqali kuchaytirish.
19. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasining asosiy tamoyillari.
20. Xulq-atvorni prognoz qilishning asosiy formulasi.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Sotsial psixologiya. Darslik: / V.M. Karimova, O.E. Hayitov, N.Sh. Umarova; Mas’ul muharrir V.M. Karimova; O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. – Chirchiq: 2020. – 270 b
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. Oliy o‘quv yurtlari bakalavriat va magistratura talabalari uchun. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 172 b
3. Barotov Sh.R., Muxtorov E.M., Solieva R.J., Olimov L.Ya. Mentalitet psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Fan” nashriyoti – 2009. – 120 b
4. David G. Myers. Social Psychology. Tenth Edition // Hope College Holland, Michigan. – NY.: McGraw-Hill, 2010. – 609
5. Nishanova Z.T. «Psixologik xizmat» (O‘quv qo‘llanma). T.: Yangiyo‘l poligrafservis, 2006.
6. Nishanova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M.V. T.: Turon-Iqbol, 2014.
7. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya.-T.: Ijod- Press. 2019.
8. Ovcharova R.V. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya / R. V. Ovcharova. - Moskva, 2007. - 445 s
9. Potapova A.V. Nartova – Bochaver S.K. Detskaya psixologicheskaya slujba. 2001.
10. Santrock J.W. Educational Psychology. Fifth Edition. - The McGrawHill Companies. 2011. - 698 p

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev. SH.M. Tanqidiy taxlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy iqtisodiy riojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamisining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14 yanvar/ Sh.M.Mirziyoyev.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-104
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi maruza. 2016 yil 7 dekabr/ Sh.M.Mirziyoyev.- Toshkent “O‘zbekiston”. 2016.-48b
3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o’tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. Sh.M.Mirziyoyev. - Toshkent : “O‘zbekiston”. 2017.-488b
4. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

5. 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 18(778)-son. – 313-modda. – B.18-24. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-Son

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 22.06.2022-y., 07/22/289/0562-son

Axborot manbaalari

1.www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali

2.www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari mta’lumotlari milliy bazasi.

3.http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.

4.http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.

http://www.ziyonet.uz/